

IJTIMOY TARMOQLARNING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI

Muhammadjonova Madinaxon Erkinjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Aldashev Ilhomjon To‘xtaboyevich

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya : Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining hayotimizda tutgan o‘rni, axborot texnologiyalari so‘zi tarixi, uning bosqichlari va ulardan foydalanishning foydali jihatlari yoritib berilgan. Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining zamonaviy jamiyatga ko‘rsatgan va ko‘rsatayotgan ta‘sirini tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoq, komputer, axborot texnologiyalari, IT, globallashgan jamiyat.

Barchamizga ma‘lumki, ushbu jamiyatda yashayotgan inson o‘z hayotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaydi. Buning sababi esa juda ham oddiy. Hozirgi globallashgan jamiyatda axborot texnologiyalari foydalanilmaydigan kasb topish juda qiyin. Sababi, bu kabi qurilmalar inson mehnatini yengillatish maqsadida foydalaniladi va insonga kam mehnat qilib ko‘proq foyda olishda ko‘maklashadi. Shuningdek, axborot texnologiyalari insonlarning jamiyat, millat, olam bilan hamnafas yashashini ham ta‘minlab bera oladi. Yuqorida bir necha o‘rinda „axborot texnologiyalar“ atamasini takrorlab o‘tdik. Xo‘sh, bu atama qanday ma‘noni anglatadi, uning kelib chiqish tarixi qanday, axborot texnologiyalari deganda o‘zi nimalarni tushunish mumkin... Avvalo, bu so‘zning tarixiga to‘xtalsak, insoniyatning uzoq o‘tmishiga nazar soladigan bo‘lsak, qadimda odamlar yozishni endigina o‘rganganlaridan keyin turli xil ma‘lumotlarni turli ko‘rinishda, ya‘ni qog‘ozga yozilgan, toshga yozilgan yoki xumdonlarga yozilgan holda saqlab qo‘yishgan, payti kelganida ulardan foydalanishgan, lekin buni qat‘iy bir nom bilan nomlay olmaganlar. Oradan bir qancha asrlar o‘tgach esa ushbu atama birinchi marotaba 1958-yilda Garvard Business Review jurnalida Garold Leavitt hamda Tomas Uisler lar muallifliklari ostida chop etilgan

maqolada paydo bo'ladi. Ushbu maqolada quyidagicha fikr borar edi: „yangi texnologiyaning hali bitta aniq nomi yo'q. Biz uni axborot texnologiyalari deb ataymiz“. Ana shu hodisadan so'ng ushbu atama ommalashib ketadi. Hozirgi kunda esa biz axborot texnologiyalari, deganda keng tarmoqdagi tushunchani tushunishimiz mumkin. Axborot texnologiyalari, deganda ma'lumotlarni izlash, saqlab olish va tarqatish orqali ma'lumotlarni ustda amallar bajarish maqsadida qo'llanadigan sohalar tushuniladi. Ushbu texnologiyalar samara beradigan, qobiliyatiga ega bo'lgan, tez ishlay oladigan texnologiyalar sirasiga kiradi va hozirgi kunda har qaysi jabhada samarali ravishda qo'llaniladi. Umumiy qilib aytganda axborot texnologiyasi bu ma'lum bir axborotni bir holatdan boshqa holatga o'tkazish, axborot ustida kerakli amallarni bajarish jarayonidir.

Axborot texnologiyalari paydo bo'lgan davridan to hozirga qadar bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. XIX asrning ikkinchi yarmigacha davom etgan davr. Ushbu davrda „Qo'llik“ texnologiyalar rivojlangan. Unda qo'llangan vositalar esa quyidagilar edi: kitob, pero.

2. XIX asrning oxiri, ushbu bosqichda yozuv mashinasi ommalashgan .

3. XX asr boshlarini o'z ichiga oladi. Uning sosoiy vositasi esa telefon edi.

4. Bu bosqich elektron texnologiyalarni qo'llash bilan belgilanadi va bu texnologiyalarning asosiy qismi elektron hisoblash mashinalari edi.

5. XX asrning oxirlariga to'g'ri keluvchi bu bosqichda computer texnologiyalari ommalashadi, ushbu bosqichning vositasi esa shaxsiy komputerlar bo'ldi hamda global va local tarmoq turlari qo'llanishni boshladi.

Axborot texnologiyalari ham o'z navbatida foydalanishdn ko'zlangan maqsadiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Ular:

1. Ma'lumotlarga ishlov beradigan axborot texnologiyalari.

Aniqroq qilib aytganda esa ular axborotlarni tahrirlashga mo'ljallangan bo'ladi.

2. Boshqarish axborot texnologiyalari.

Bu turdan asosan firmalarda foydalaniladi, ya'ni firmaning o'tmishi va hozirini aks ettirishda qo'llanuvchi tur hisoblanadi. Uni qo'llashdan maqsad esa kishilarning axborotlarga nisbatan ehtiyojlarini qondirishdir.

3. Ofis axborot texnologiyalari

Bu axborot texnologiyalari tashkilot hamda tashqi muhit orasidagi kommunikatsiya jarayonlarini computer qurilmalari orqali tashkil etib berishda ishlatiladi. Ularga misol qilib, Exel electron jadvali yoki Power Point dasturini keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan 3 ta tur orqali ham ular bizning jamoiyatimizda o'ta kata ahamiyatga ega ekanligi yaqqol sezilib turibdi. Oddiy ta'lim sohasini oladigan bo'lsak ham qurilayotgan zamonaviy maktablarining computer bilan ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi esa maktab yoshidab boshlab o'quvchilarni axborot jamiyati bilan hamnafas holatda tarbiyalab borishdir. Oxirgi o'tgan 20 yil ichida axborot texnologiyalari, xususan shaxsiy komputerlarning jamoiyat hayotidagi o'rni tubdan o'zgardi. Ularga jamoyatni yuksaklikka yetaklovchi omil sifatida qarash boshlandi. Texnologiyalar rivojlangan zamonda axborot texnologiyalari haqida ma'lumotga ega bo'lish, ulardan amaliyotda samarali foydalana olish har qanday kadr uchun muhim fazilatdan biri bo'lmoqda. Har kuni eshitayotganimiz ITning hayotimizdagi o'rni shunchalik muhimmi? Ha, albatta. Chunki bugungi kunda bizning hayotimiz aynan shundan iborat bo'lib qoldi. Ushbu texnologiyalarning esa insonlar uchun foydali tomonlarini har qadamimizda ko'rishimiz mumkin. Masalan, ular orqali axborotni istalgan vaqtda istalgan joyda tez va oson ulasha olamiz yoki axborotdan xabardor bo'la olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayevna S.X. 2023 Ommaviy axborot vositalarining inson psixikasiga ta'siri
2. Mirzayevna S.X. Axborot texnologiyalarining inson psixikasiga ta'siri
3. ziyonet.uz
4. Yo'ldasheva G. va Shermatova X. (2022) Ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanish istiqbollari.
5. <https://www.infocom.uz>